

# SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI

>>

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI



2024

7-JILD  
4-SON  
13-APREL



## «BEST PUBLICATION»

*Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©*

**“SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI”  
ILMIY-USLUBIY JURNALI**

## MATERIALLARI TO‘PLAMI

13-Aprel, 2024-YIL

7-JILD 4-SON

O‘ZBEKISTON

2024

MAQOLALAR:	
<b>ПЕРЕВОД И СТИЛИСТИКА</b> <i>Каримова Малика Абди-Хафизовна</i>	<b>10</b>
<b>SUBTEXTUAL STRENGTH: HOW HEMINGWAY'S MINIMALIST STYLE SHAPES WARTIME EMOTION</b> <i>Kiyasova Rano Malikovna</i> <i>Rasulova Zukhra Khakimberdivna</i> <i>Raxmonova Yulduz Khusanovna</i> <i>Khusanova Indira Akbardianovna</i>	<b>15</b>
<b>UNVEILING THE MYSTERIES OF MEANING: A JOURNEY INTO THE WORLD OF SEMANTICS</b> <i>Saidivalieva Barno Saidbahromovna</i> <i>Yuldasheva Mamura Bakhtiyorovna</i> <i>Rakhmonova Yulduz Khusanovna</i> <i>Khalikova Latofat Uktamovna</i>	<b>21</b>
<b>"ENHANCING THE ESL CURRICULUM WITH AUTHENTIC MATERIALS IN UNIVERSITY SETTINGS"</b> <i>Zarina Sharapova Ergashbayevna</i> <i>Lobar Bahromova Isabek qizi</i>	<b>30</b>
<b>" THE PROBLEMS OF TRANSLATION AND SOME USEFUL STRATEGIES IN TRANSLATING ENGLISH MEDICAL TERMS INTO UZBEK"</b> <i>Gafurova Nozimaxon Ikramovna</i> <i>Karimova Dilzodaxon Lazizovna</i>	<b>34</b>
<b>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАГНИТНОЙ ДОСКИ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ.</b> <i>Гафуров Акрам</i>	<b>39</b>
<b>СОПОСТАВЛЕНИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О СМЕРТИ И БЕССМЕРТИИ В ГРЕЧЕСКОЙ МИФОЛОГИИ И В ПОЭЗИИ ДАНТЕ АЛИГЬЕРИ.</b> <i>Алламуратов Арысланбек</i>	<b>49</b>
<b>SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI BOSHQARISH VA UNGA RAHBARLIK QILISH (SOG'LIQNI SAQLASH MENEJMENTI VA MENEJER XIZMATI)</b> <i>Xamidulla Bashirovich Magzumov</i> <i>Mavluda Karimova Tolibjonovna</i> <i>Abduraxmanov Shaxriyor Zafar o'g'li</i> <i>Ahmadaliyev Doniyorbek Ilhomidin o'g'li</i>	<b>53</b>
<b>MONOPOLIYALARNING IQTISODIY ASOSLARI VA ULARNING TURLARI.</b>	<b>58</b>

**SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI BOSHQARISH VA UNGA RAHBARLIK QILISH  
(SOG'LIQNI SAQLASH MENEJMENTI VA MENEJER XIZMATI)**

**Xamidulla Bashirovich Magzumov**

*Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent*

**Mavluda Karimova Tolibjonovna**

*Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent*

**Abduraxmanov Shaxriyor Zafar o'g'li**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Menejment : Sog'liqni saqlash menejmenti yo'nalishi  
3-bosqich talabasi*

**Ahmadaliyev Doniyorbek Ilhomidin o'g'li**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Menejment : Sog'liqni saqlash menejmenti yo'nalishi  
3-bosqich talabasi*

**Annotasiya:** *Sog'liqni saqlashni boshqarish jarayoniga jalg etilgan sog'liqni saqlash tizimi rahbarlari va ma'murlari uchun menejmentning asosiy konsepsiyasini tushunish, uni qo'llash uslubi muhim ahamiyatga ega. Kasalxonaga yotqizish vaqtini ka-maytirish, davolash qiymatini pasaytirishga yo'naltirilgan tadbirlar va davlat ajratmalarining kamayishi, tibbiy xizmatlar qiymatida qarorlar qabul qilishni to'la anglashi lozim bo'lgan sog'liqni saqlashning barcha bo'g'lnlari, undagi barcha xodimlarning faol ishtirokini talab etadi. Respublikada sog'liqni saqlash tizimini qayta qurishning muhim tomonlaridan biri mutaxassis rahbar xodimlar tayyorlash masalasi hisoblanadi. Bu maqolada siz sog'liqni saqlash menejmentining boshqaruv usullari, qaror va rejalarini va jamiyatda tutgan o'rni bilan batassil tanishasiz.*

**Kalit so'zlar:** *sog'liqni saqlash, kasalliklarning oldini olish, boshqaruv jarayoni, rejalahtirish, motivlashtirish, olingan natijalarni tahlil qilish, baholash, isloq qilish.*

**Annotation:** *For leaders and administrators of the health system involved in the process of health care management, it is important to understand the basic concept of management and how to apply it. Reduction of hospitalization time, measures aimed at reducing the cost of treatment and reduction of state allocations, all levels of health care, which should be fully aware of decision-making in the cost of medical services, require the active participation of all employees in it. is enough. One of the important aspects of the reconstruction of the health care system in the republic is the issue of training specialist managers. In this article, you will learn more about the management methods, decisions and plans of health management and its role in society.*

**Key words:** *health care, disease prevention, management process, planning, motivation, analysis of obtained results, evaluation, reform.*

**KIRISH**

Sog'lijni saqlash - aholi sog'lig'ini muhofaza qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimi. Sog'lijni saqlash kasalliklarning oldini olish va davolash, sog'lom turmush va mehnat sharoitini yaratish, yuqori mehnat qobiliyatini va uzoq umr ko'rishni ta'minlashga qaratilgan umumiy tadbirlarni ko'zda tutadi. Uning asosiy vazifasi bemorlarga zamonaviy, ixtisoslashgan hamda mos tarzda yordam ko'rsatishdan iborat. Bugungi kunda aholi salomatligini muhofazalash faqat sog'lijni saqlash tashkilotlarining vazifasi emasligi hammamizga ma'lum. Bu umuman davlat, jamiyat ishi, ammo bu jarayonni boshqarishda sog'lijni saqlash tizimi, muhim birlashtiruvchi, koordinatsiyalashtiruvchi rolni o'ynaydi. Jamoat sog'lig'ini saqlash, aholi guruhining ehtiyojlaridan kelib chiqib keng qamrovli sog'lijni saqlash xizmatini tashkil etishdan iborat. Shuning uchun ham aholi salomatligi holatidan kelib chiqqan holda, tegishli resurslarni aniqlash bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish talab etiladi. Shu va shunga o'xshash vazifalarni maxsus boshqaruv ilmini egallagan mutaxasis ya'ni menejer bajaradi.

Menejment — biror ko'zlangan maqsadga erishish usullari, shakllari va boshqaruv tamoyilini o'rgatadigan fan hisoblanadi.

Menejer- maxsus boshqaruv ilmini egallagan mutaxasis demakdir. Boshqarishning asosiy maqsadi jamiyatning moddiy-ma'naviy ehtiyojlarini to'liq qondirish maqsadida ijtimoiy munosabatlarni va ishlab chiqarish tizimini takomillashtirish hamda rivojlantirishdan iborat. Menejment deganda, boshqa odamlarning xatti-harakati, intellekti mehnatidan foydalangan holda oldinga qo'yilgan maqsadga erisha olish qobiliyati tushuniladi.

Sog'lijni saqlashni boshqarish jarayoniga jalg etilgan barcha vrachlar, hamshiralalar, dorishunoslar, bo'lim boshliqlari, sog'lijni saqlash tizimi rahbarlari va ma'murlari uchun menejmentning asosiy konsepsiyasini tushunish, uni qo'llash uslubi muhim ahamiyatga ega. Kasalxonaga yotqizish vaqtini ka- maytirish, davolash qiymatini pasaytirishga yo'naltirilgan tadbirlar va davlat ajratmalarining kamayishi tibbiy xizmatlar qiymatida qarorlar aks etishini to'la anglashi lozim bo'lgan sog'lijni saqlashning barcha bo'g'inlari, undagi barcha xodimlarning faol ishtirokini talab etadi. Respublikada sog'lijni saqlash tizimini qayta qurishning muhim tomonlaridan biri mutaxassis rahbar xodimlar tayyorlash masalasi hisoblanadi. Boshqarish o'z qo'l ostidagi xodimlarning muvaffaqiyatlarga erishishiga rahbarlik qilish ekan, u aniq maqsadga erishish bilan bevosita bog'liq. Shunday qilib, aniq maqsad va unga erishish yo'lidagi muvaffaqiyat boshqaruv natijalaridan biri hisoblanadi. Muvaffaqiyat deganda, jamiyat tomonidan tan olingan eng yaxshi natijalarga erishish tushuniladi. Muvaffaqiyat quyidagi elementlarni qamrab oladi:

- Faoliyat bilan bog'liq real maqsadni aniqlash;
- Uning jamiyat tomonidan tan olinishi;
- Yaxshi natijaga erishish.

Boshqaruv jarayonida maqsadga erishish yo'lida, odatda, ko'pgina qiyinchiliklar, to'siqlar, muammolarga duch kelish mumkin. Bu muammolarni muvaffaqiyatli hal etgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Sog'liqni saqlashda menejment quyidagilarni amalga oshirish uchun zarur ko'nikmalarni yaratadi: ishlab chiqarish jarayonini o'zgartirish; sog'liqni saqlash ahvolini yaxshilash.

Sog'liqni saqlashni boshqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularga quyidagilar kiradi:

-qabul qilinayotgan qarorlarning jamiyat ahamiyatiga ega ekanligi ya'ni ijtimoiy nafliligi;

-ularni bashorat qilishning qiyinligi, chunki ular darhol samara bermaydi;

Boshqaruv jarayoni tarkibi jihatidan o'zaro bog'liq va to'xtovsiz davom etadigan siklni tashkil etadi va u bir necha bosqichlardan iborat.

Menejment ko'zlangan maqsadiga erishish uchun quyidagilarni ketma-ketlikda bajarishi lozim:

- rejalshtirish;
- tashkil etish;
- motivlashtirish (qiziqtirish);
- nazorat qilish, olingan natijalarni tahlil qilish, baholash;
- raxbarlik qilish.

Rejalshtirish — bu bosqichda menejer o'zi faoliyat yuritadigan muassasa uchun istiqbolli reja va dasturlarni ishlab chiqadi.

Strategik rejalshtirish:

- vazifa-maqsadlar va strategik yo'nalişni aniqlash;
- tashqi sharoitlar, imkoniyat va tahdidlar tahlili;
- ichki kuchli va zaif tomonlarni baholash ya'ni SWOT tahlil;
- maqsadlarni belgilash;
- maqsadga erishish uchun strategiyani tanlash;
- vazifalarni aniqlash;
- har bir vazifani hal etish uchun zarur tadbirlar bilan ishchi dasturlarni ishlab chiqish;

Tashkil etish-bu bosqichda rahbar rejalarini amaliyotga tadbiq qilishi va tashkil etishi tushuniladi. Bunda rahbar tashabbusni o'z qo'liga oladi.

Motivlashtirish (qiziqtirish) — qiziqtirishning eng oliy shakllaridan biri bu ishonchdir. Ishonch insondagi eng yaxshi xususiyatlarni yuzaga chiqaradi. Xodimlarga muayyan ishni bajarishga ishonch bildirib, siz ularga faxrlanish va mukammallik xislatlarini singdirasiz. Ularga ishonch bildirib, siz ularning ishonchini qozonasiz, buning uchun albatta ma'lum bir vaqt talab etiladi. Ularning mavqeい siz bilan ishonch darajasiga ko'tarilishi uchun xodimlarni muntazam o'qitish va malakasini takomillashtirish zarur.

Samarali boshsaruv(rahbarlik qilish). Mas'uliyatlarni qobiliyatliroq va iste'dodliroq xodimlarga berish rahbar ularning kuchlarini umumiyoq vazifalarni hal etish uchun to'play olishini bildiradi, bu natijada tashkilot uchun yuqori unumdorlikka aylanadi. Mehnat unumdorligiga ershish uchun dastlab rahbardan oqilona mehnat taqsimotini yo'lga qo'yishi yotadi.

O'zbekistonda sog'liqni saqlashni isloh qilishning asosiy vazifalaridan biri sog'liqni saqlash muassasalarini davlat monopoliyasidan chiqarish, markazlashmagan boshqaruv tizimini tashkil etish va demokratlashtirish hisoblanadi. Hozirgi kundagi sog'liqni saqlash tizimini 2 turda moliya-lashtirish, ya'ni mablag' bilan ta'minlashga o'tishning asosiy maqsadi sog'liqni saqlash tizimini monopoliyadan chiqarishdir. Sog'liqni saqlash muassasalarini xususiylashtirish va pullik xizmat tizimiga o'tish malakali tibbiy yordamni tanlash imkoniyatini berdi. Bu esa, o'z navbatida, demokratik tamoyillarning sog'liqni saqlash tizimiga kirib kelishiga asos bo'ldi. Sog'liqni saqlash tizimini monopoliyadan chiqarishning asosiy ko'rinishlaridan biri turli mutaxassisliklar

Boshqarish turli tarkibiy qismlarni qamrab oluvchi 4 bo'limdan iborat:

- Birinchi bo'limda xodimlarni boshqarish yangi tamoyilla-rining turlicha talqinlari ochib beriladi.
- Ikkinci bo'lim xodimlarni boshqarish jarayonining asosiy bosqichlarini: rejalashtirish, tanlov, ish haqi, muvofiqlashtirish, xodimlarni o'qitish va qayta o'qitishni qamrab oladi.
- Uchinchi bo'limda xodimlarni qiziqtirish (rag'batlantirish) jarayonini, odamlarning faol harakatga istagini uyg'otuvchi turli qiziqtirish nazariyalarini ifodalovchi savollar ochib beriladi.
- To'rtinchi bo'lim hokimlik, hokimlik vakolatlari, rahbarlik masalalariga bag'ishlangan. Bu bo'lim ta'sir etish jarayoni qanday amalga oshirilishini, nima uchun odamlar bo'ysunishini, kim yo'lboschchi bo'lishi mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Tibbiyot sohasining xususiyati bilimlarning juda tez eskirishi va ularni doimiy yangilash zaruriyatining paydo bo'lishi hisoblanadi. Masalan, ba'zi kasalliklarga va holatlarga tashxis qo'yish hamda davolashga yondashuvlar o'tkaziladigan ilmiy tadqiqotlar natijasida har 5 yilda taxminan 50—70 foizga o'zgaradi, deb hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, tibbiy muassasalarda, xususan, holatni eng ko'p qamrab oladigan sog'liqni saqlash muassasalarida xodimlarning bilim va ko'nikmalarini doimiy yangilamasdan turib, tibbiy xizmat ko'rsatishning unumdorligi, samaradorligi va sifatiga erishib bo'lmasligini bildiradi. Bu esa o'z navbatida menejer o'z muassasasining faoliyatini balki bemorlarni ham o'ylagan holda, qo'l ostidagi xodimlarining malakasini oshirishini ta'minlab berishi kerak. Malaka oshirish nafaqat o'zimizda balki tibbiyoti rivojlangan xorijiy davlatlarga yuborib malakasini oshirishini ham nazarda tutmog'i lozim. Chunki tajribali va malakali mutaxasis muassasaning eng katta yutug'idir. Muassasada qancha malakali xodimlar bo'lsa, bu muassasaning molivaviy mablag'ini

shakllantirishga yetarlicha hissa qo'shadi. Shuning uchun o'qitishning sog'liqni saqlash bo'g'in muassasalari uchun ahamiyati juda sezilarli va dolzarbdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOLAR:**

1. M.B. Atoeva . Sog'liqni saqlash menejmenti va iqtisodiyoti fani o'quv-uslubiy majmuasi magistratura boqichining barcha mutaxassisliklari uchun (Ushbuishchi dastur o'quv dasturi va o'quv reja asosida 5510700 –davolash ishi yo'nalishi bo'yicha tuzilgan va Buxoro davlat tibbiyot instituti markaziy uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan)-Buxoro ,2019.-B.8
2. Sh.T.Iskandarova, N.M.Maxmudova . Jamoat salomatligi, sog\_liqni saqlashni tashkillashtirish va boshqarish bo'yicha o'quv qo'llanma-T,2011.
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Sog'liqni\\_saqlash](https://uz.wikipedia.org/wiki/Sog'liqni_saqlash)
- 4.Soliev A., Buzrukxonov S. Marketing, Bozorshunoslik. Darslik. –T.: Iqtisod-Moliya, 2010.- 424 b.
- 5.Kucharov A.S. Menejment . O'quv qo'llanma.T.:TDIU, 2009 y. -120 b.
- 6.Sharifxo'jaev M., Yo.Abdullaev.Menejment. Darslik.T.: O'qituvchi, 2001.
- 7.Qosimova D.S. "Menejment nazariyasi". Darslik T.:TDIU, 2011-30 b.
- 8.Vixanskiy, O. S. Menedjment : uchebnik / O. S. Vixanskiy, A. I. Naumov. – -e izd., ster. – Moskva : Magistr : INFRA-M, 2014. – 76 s.
- 9.Daniel Mengistu, Equilinet Misganaw "Community Health Nursing" 2006
10. <https://www.coursera.org/articles/health-care-management>
11. <https://nursinglicensemap.com/resources/healthcare-careers/what-is-healthcare-management/>
12. <https://www.msudenver.edu/what-can-you-do-with-a-healthcare-management-degree/>